

## ZAMONAVIY TIBBIYOT TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Maxmudova D.R.**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

*(Navoiy viloyati)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi kunda kasallik turlarining ko'payib borayotganligi, zamonaviy raqamli tibbiyotning aholi uchun zarurligi, tibbiy ta'limning raqamli texnologiyalaridan foydalanish yo'llari va yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida tibbiy ta'limni raqamlashtirishga oid amaliy tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Texnologiya, taraqqiyot, zamonaviy, iqlim, raqamlashtirish, innovatsiya, raqamli ta'lim, yuksak tibbiy madaniyat, ta'lim texnologiyasi, raqamli muhit.*

**Abstract:** *This article discusses the current increasing number of diseases, the need for modern digital medicine for the population, ways and directions of using digital technologies in medical education. It also provides practical recommendations for the digitalization of medical education in the educational system of Uzbekistan.*

**Keywords:** *Technology, progress, modern, climate, digitization, innovation, digital education, high medical culture, educational technology, digital environment.*

O'zbekistonda taraqqiyot shiddat bilan kechayotgan hozirgi kunda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish har bir sohada dolzarblik ahamiyatiga ega sanalmoqda. Mamlakatning gullab-yashnashi yo'lida bilimli va salohiyatli yoshlarning faol ishtiroki asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda barcha sohalar kabi zamonaviy tibbiyotga bo'lgan ehtiyoj o'sib bormoqda. Dunyo bo'ylab kechayotgan turli voqeliklar, xususan, yer yuzida iqlimning shiddatli o'zgarishlari, aholi salomatligida muammolarning keskinlashishi, kasallik turlarining oshishi, "Covid-2019" pandemiyasining

tarqalishi sababli tibbiy yordamga ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Natijada, yer yuzi aholisini kasalliklardan himoyalash, onalik va bolalikni muhofaza qilish asnosida yosh onalar va bolalar o'limining oldini olish, sohada zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, birlamchi tibbiy yordam tizimini rivojlantirish, davolashda yuqori texnologik usullardan foydalanish kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Shunday ekan, "tibbiyot sohasiga yangi innovatsiyalarni kiritish, rivojlangan mamlakatlarning sog'liqni saqlash tizimida qo'lga kiritilgan yutuqlarini jahonga yoyish, orttirilgan tajribalarni amaliyotga joriy etish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, uni tarixan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda".[1.3.] O'zbekistonda raqamli sanoatni yaratish, inson kapitalini rivojlantirish darajasini yuksaklikka ko'tarish orqali raqamli tibbiyotni rivojlantirish, tibbiy ta'limda yoshlarga bilim berishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish tizim oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Hozirda tibbiyot muassasalarining o'quv mashg'ulotlari va amaliyot xonalari zamonaviy kompyuterlar, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlandi. Shun ishonch bilan aytish mumkinki, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridek O'zbekistonda ham zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan ekranli qurilmalar: televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon, smartsoatlar paydo bo'ldi. Bunday raqamli imkoniyatlarga ega bo'lish esa, yoshlarning mustaqil bilim olishiga va erkin ijodiy fikr yuritishga erishishiga keng yo'l ochadi. Shu bilan birga talabalarning puxta bilim olishi va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi.

Rivojlangan davlatlardagi tibbiyot oliy va o'rta ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida, jumladan, Markaziy Osiyoni tadqiq etish markazi (Buyuk Britaniya), Germaniya tadqiqot fondi (Germaniya), Albert tibbiyot maktabi (AQSH), Nyu-York universiteti (AQSH), Stenford universiteti tibbiyot maktabi (AQSH) kabi ta'lim muassasalarida tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar asosida davolashning yangicha metodlari ishlab chiqilib, amaliy va ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Dunyoda kechayotgan shiddatli o'zgarishlarni kuzatish natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, keyingi yillarda O'zbekistonda ham 350 turdagi jarrohlik amaliyotlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, tibbiy xizmat ko'rsatish holatini mutaxassislar

tomonidan tahlil qilish jarayonida yuqori malakali xodimlar yetishmasligi, innovatsion salohiyatning pastligi, tibbiyot amaliyotining ta'lim bilan integratsiyalashuvi sust rivojlanayotganligi muammosi o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi. Garchi, yurtimizda zamonaviy texnologiyalar vositasida transplant jarrohlik va boshqa murakkab amaliyotlar o'tkazilayotgan bo'lsa-da, tibbiyotda bu hali yuqori ko'rsatkich emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim berish, raqamli texnologiyalarga asoslangan didaktik modellardan samarali foydalanish orqali tibbiy ta'lim muassasalarida tibbiy ta'lim tizimini raqamli texnologik ta'limga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Hozirgi kun talabalarini zamonaviy va mustahkam tibbiy bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli eng dolzarb usul hisoblanadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari –raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladiki, bunda o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy ta'sirni saqlab qoladi. O'qituvchi faoliyatining samaradorligi o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda hamda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. [2. 105.]

Raqamli ta'lim texnologiyalariga asoslangan asrda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" yangi ta'lim texnologiyalari orqali oliy ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu konsepsiyaning qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega masaladir. Konsepsiyaning maqsadi barcha ta'lim yo'nalishlari kabi tibbiyot yo'nalishida ham o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish, shu bilan birga oxirgi yangi qurilmalardan foydalangan holda ta'lim

olish imkoniyatini ta'minlashdir. Bu borada eng muhim vazifalardan biri o'qituvchining ixtirochiligi va ishbilarmonligini oshirgan holda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish, video ma'ruzalar va innovatsion ta'lim texnologiyalari markazlarining milliy tarmog'ini yaratish, o'zaro raqamli aloqalarning ategik rejasini yaratish va amaliyotga joriy etish, O'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ijodkor va iqtidorli talabalarni raqamlashtirish loyihalariga jalb etish, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarning jamlanmasi asosida "Raqamli kompetensiyalar markazlari"ni tashkil etish orqali orttirilgan tajribani amaliy qo'llashga erishish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish va hokazo.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, tibbiyot yunalishida birlamchi tibbiyot bo'g'inini kelib chiqqan kasallikni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, ixtisoslashgan markazlar tomonidan hududlarda, ayniqsa, markazdan uzoqda joylashgan tumanlarda tor doiradagi tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqamlashtirish orqali tibbiyotda ortiqcha sansolarliklar, qog'ozbozlik va korrupsiyani oldini olish, tibbiyotning barcha yo'nalishlarida raqobatni rivojlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, tibbiyot xodimlari bilimini oshirish, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilib, elektron xukumat imkoniyatlarini yanada kengaytirish, hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xamrayeva S.I. "1992-2022-yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (Navoiy viloyati misolida)" nomli tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2025. 3-bet.
2. Худоёрова О. К., Раупова Ш.А. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции «Цифровизация в

обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании» ТГСИ, 5 марта 2022 года. Стр. 105.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi“. 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6221-son “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” Farmoni. Toshkent sh., 2021-yil 5-may,

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son.